

O'ZBEKISTONDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA
MILLATLARARO TOTUVLIK

Boymirzayeva Xurshida Sobirovna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Millatlararo totuvlik" ("tolerantlik") deyarli barcha tillarda bir xil yoki bir-birini to'ldiruvchi mazmunga ega. Ularni umumlashtirib "bag'rikenlik" chidamlilik, bardoshlilik, toqatlilik, o'zgacha qarashlar va harakatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, muruvvatlilik, himmatlilik, kechirimlilik, mehribonlik, hamdardlik kabi ma'nolarga ega deyish mumkin. Bugungi kunda chuqur ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy mazmun kasb etgan ushbu tushuncha ko'pchilik tomonidan tan olingan, ilmiy ta'rifi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Millatlararo totuvlik, tolerantlik, bag'rikenlik, chidamlilik, millatlar, din, irq, diniy tashkilotlar

Annotation

International harmony" ("tolerance") has the same or complementary meaning in almost all languages. Summarizing them, it can be said that "tolerance" means endurance, tolerance, tolerance, respect for different views and actions, kindness, diligence, forgiveness, kindness, sympathy. Today, this concept, which has a deep socio-political and cultural-educational meaning, is recognized by many people, and a scientific definition has been developed.

Key words: International harmony, tolerance, tolerance, endurance, nations, religion, race, religious organizations

O'zbekistonda aholining ko'p millatli bo'lishiga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning qulay omili sifatida qaralmoqda. Ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni saqlash, dinlararo va millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish hisobiga xalqaro maydonda O'zbekistonning obro'si oshib bormoqda.

O'zbekistonda millati, dini, irqi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, barcha fuqarolarning ertangi kunga bo'lgan ishonchi, bugungi kundagi hayoti va taqdiridan mamnunligi ularning milliy g'oya atrofida mustahkam birlashib, ya'ni bir yoqadan bosh chiqarib, "O'zbekiston – umumiy uyimiz", "Shu aziz Vatan barchamizniki", "Qudratimiz – birlik va hamjihatlikda", "Maqsad bir, g'oya bir, Vatan yagona", "Vatan yagonadir – Vatan bittadir" g'oyalarining asl mohiyatini chuqur anglab yetgan holda shu muqaddas Vatanning buyuk kelajagini qurish va uning mustaqilligini yanada mustahkamlash yo'lida fidoyilik bilan sidqidildan qilayotgan

mehnat faoliyatlarida, turli sohalarda qo‘lga kiritayotgan yutuqlarida yorqin namoyon bo‘lmoqda. Konstitutsiya orqali kafolatlangan teng huquq va keng imkoniyatlar esa ularning kuchiga kuch, quvvatiga quvvat qo‘shib, yangidan yangi zafarlar sari ilhomlantirmoqda. Dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasi xilma-xil diniy e‘tiqodga ega bo‘lgan kishilarning bir zamin, bir vatanda, olijanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashini anglatadi. Dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g‘oyalariga asoslanadi, u halollik, tinchlik, yaxshilik va do‘stlik kabi bir qancha ezgu fazilatlarga tayanadi. Insonlarni halollik va poklik, mehr-oqibat, insonparvarlik va bag‘rikenglikka da‘vat etadi.

Bag‘rikenglik o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan chinakam islomiy fazilatdir. U samimiyat, ochiq muloqot hamda vijdon va e‘tiqod tufayli vujudga keladi. Shuningdek, u faqat ma‘naviy burchgina emas, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, yon-atrofimizda xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini rivojlan-tirish, yurtimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash masalalariga alohida e‘tibor qaratil-gan bo‘lib, bu bilan millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Xalqimizga xos bag‘rikenglik ham o‘zining qadimiy ildizlariga ega. Mamlakatimizda bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini yuksaltirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni, fuqarolar totuvligini ta‘minlash, xorijiy mamlakatlar bilan do‘stona, teng huquqli munosabatlarni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Shu bois siyosiy barqarorlik va millatlararo totuvlikni ta‘minlashda, fuqarolarimizda yagona Vatan tuyg‘usini shakllantirishda, yurt istiqboliga daxldorlik hissini kamol toptirishda xalqimizning bag‘rikenglik xislati asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida ko‘rsatilganidek, O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. O‘zbekistonda yashovchi turli millat vakillarining madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun milliy madaniy markazlari faoliyat yuritadi. Dastlabki milliy madaniy markazlar koreyslar, qozoqlar, yahudiylar, armanlar tomonidan respublika viloyatlarida 1989-yilda tashkil etilgan. Bu markazlarning chinakam rivojlanishi va ravnaq topishi O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin boshlandi. Bu davrda ularning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Natijada, ularning soni yil sayin ortib bordi. Agar 1992-yilda 10 ta milliy madaniy markaz ish olib borgan bo‘lsa, 1995-yilda ularning soni 72 taga, 2003-yilda 135 taga yetdi. Hozirga kelib esa mamlakatda 138 ta milliy madaniy markazlar faoliyat yuritmoqda. O‘zbekiston Respublikasida yashovchi turli millat vakillarini respublika ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy hayotida faol ishtirok etishini

ta'minlash milliy madaniy markazlar faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Shuningdek, xorijiy mamlakatlardagi turdosh tashkilotlar hamda tarixiy vatanlari bilan do'stlik, hamkorlik, madaniy-ma'rifiy aloqalar o'rnatish va hamdo'stlik aloqalarini rivojlantirish, Respublika baynalmilal madaniyat markazi, turli davlat va jamoat tashkilotlari hamda ijodiy uyushmalar bilan hamkorlikda mamlakatda fuqarolar hamjihatligi va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga ko'mak-lashish markazning asosiy vazifalaridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-maydagi "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" [PF-50-46-son. 19.05.2017.]gi Farmoniga muvofiq, Respublika baynalmilal madaniyat markazi va O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi negizida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari Qo'mitasi tashkil etildi. Hozirda Qo'mita qoshida 138 ta milliy madaniy markaz faoliyat yuritadi. Mazkur Qo'mitaning asosiy vazifalari jamiyatda millatlararo hamjihatlik va bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini izchil amalga oshirish, do'stlik va ko'p millatli yagona oila tuyg'usi muhitini mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda yashovchi turli millat va elatlar vakillarining o'ziga xos milliy an'analari va urf-odatlarini asrab-avaylash, xorijiy mamlakatlarda davlatimizning tinchliksevar siyosati, demokratik huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurish borasida O'zbekistonning maqsad va vazifalarini, shuningdek, bugungi kunda mamlakat hayotining barcha sohalarida erishilayotgan muvaffaqiyatlarni keng targ'ib qilish va boshqalardan iborat.

So'nggi to'rt yilda millatlararo munosabatlar va din sohasida 50 dan ortiq qonun hujjatlari va 40 ga yaqin qarorlar qabul qilindi. Bu huquqiy hujjatlarning aksariyati fuqarolarning dini va millatidan qat'i nazar, huquq va erkinliklarini kengaytirish, shu jumladan, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish imkoniyatini oshirishga qaratilgan.

Masalan, diniy tashkilot faoliyatini tugatish to'g'risida qaror qabul qilish vakolatlari ijro hokimiyati — adliya organlaridan sudlarga o'tkazilib, ularning faoliyati erkinligining huquqiy kafolatlari mustahkamlandi. Diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish uchun davlat boji miqdori besh baravarga kamaytirildi, hisobotlarni taqdim etish davriyligi qisqartirildi. Bundan buyon diniy tashkilotlar faqat yilda bir marta hisobot taqdim etadi.

SHuningdek, 2019 yilda millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati kontseptsiyasi tasdiqlandi. SHu bilan birga, diniy-ma'rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo'yicha bir qancha qarorlar qabul qilinib, unga ko'ra, mazkur sohada yagona davlat siyosatini amalga oshirish, fuqarolarning vijdon erkinligi

kafolatlarini himoya qilish, turli millat va elatlar vakillari o'rtasida konstruktiv va o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirish bo'yicha yangi tizim joriy etildi. Xususan, Vazirlar Mahkamasi huzurida millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etildi, Din ishlari bo'yicha qo'mita faoliyati takomillashtirildi.

“Millatlararo totuvlik” (“tolerantlik”) deyarli barcha tillarda bir xil yoki bir-birini to'ldiruvchi mazmunga ega. Ularni umumlashtirib “bag'rikenlik” chidamlilik, bardoshlilik, toqatlilik, o'zgacha qarashlar va harakatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, muruvvatlilik, himmatlilik, kechirimlilik, mehribonlik, hamdardlik kabi ma'nolarga ega deyish mumkin. Bugungi kunda chuqur ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy mazmun kasb etgan ushbu tushuncha ko'pchilik tomonidan tan olingan, ilmiy ta'rifi ishlab chiqilgan. Muhokama va natijalar “Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi”da bag'rikenglik tushunchasiga shunday ta'rif berilgan: “Bag'rikenglik-bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hur fikr, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi. Bag'rikenglik — turli tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma'naviy burchgina emas, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Bag'rikenlik — tinchlikka erishishni musharraf qilguvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchidir”. “Bag'rikenglik” tushunchasi ilmiy faoliyat va ijtimoiy hayotning turli sohalari, jumladan, siyosat va siyosatshunoslik, sotsiologiya, falsofiya, ilohiyot, ijtimoiy axloq, qiyosiy dinshunoslik kabi sohalarda keng istifoda etiladigan tushunchalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2017 2. O'zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Prezident Farmoni PF–47-49-son. 07.02.2017.

3. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 11 (2021) / ISSN 2181-1415 24 3. Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 19-maydagi “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'ri-sida” [PF–50-46-son. 19.05.2017.]gi Farmoni.

4. Sh. Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi. 5. N. Alimova, Sh. Asqarov, R. Haydarov, Sh. Amirjo'jayev “Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar”.2014